



# TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2023- YIL YANVAR - IYUL  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Sanoat statistikasi  
boshqarmasi  
Tel.: 71-203-88-07

## Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

(2023- yil yanvar - iyul oylarida)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar - iyul oylarida shahar korxonalaridan tomonidan 64,6 trln. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar - iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 104,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (82,3 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 53,2 trln. so'mni tashkil etdi.




*B – Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C – Ishlab chiqaradigan sanoat D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.*

### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 7,3 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 31,0 % ga, o'sishi kuzatildi. Tog'kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 4,8 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 5,5 % ga pasayish kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar - iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,9 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmining 13,8 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,**  
(yanvar - iyul oylarida, % da)



**Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

**Gaz kondensati**



**Tabiiy gaz**






**Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar - iyul	2023- yil yanvar - iyul	Farqi +/-
Neft, ming t.	383,4	392,5	9,1
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	21 164,5	19 159,4	-2005,1
Gaz kondensati, ming t.	436,4	385,5	-50,9
Chaqiq tosh ming t.	355,0	290,0	-65,0


Shag'al t.

**Ishlab chiqaradigan sanoat**



2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 53,2 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 82,3 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,  
(yanvar - iyul oylarida, % da)**



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 4,4 % ni (2022- yilning yanvar - iyul oylarida – 4,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 23,8 % (22,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 31,8 % (31,3 %) va quyi texnologiyalisi – 40,1 % (41,4%)ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar

va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 28,1 % (2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 16,2 % (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,3 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,4 % (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,5 % (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,3 % (2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 126,7 %) ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

2023- yilning yanvar - iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 2930,3 tonna makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar (47,7 % ga oshgan), 3602,6 ming litr konyak spirti 100% (36,3 % ga oshgan), 11,3 ming tonna mashinada yoki qo‘lda to‘qilgan trikotaj polotnolar (21,3 %) hamda 58294,4 ming tonna pivo (17,7 %) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.

#### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


##### O‘simlik yog‘i (tozalangan)




##### Margarin va yormalar




##### Yumshoq bug‘doy va spelta uni



##### Pivo



##### Aroq




##### Uzum vinosi



##### Tamaki mahsulotlari

##### Paxta kalavasi



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar - iyul	2023- yil yanvar - iyul	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, <i>ming tonna.</i>	13,9	73,8	59,8
Paxtadan yigirilgan ip, <i>ming tonna.</i>	21,6	19,9	-1,7
Margarin va yormalar <i>tonna.</i>	4 959,0	2 305,4	-2 653,6
Pivo – <i>mln litr</i>	49,5	58,3	8,8
Traktorlar - <i>dona</i>	67,0	10,0	-57,0
Sovutgich va muzlatgichlar - <i>ming dona</i>	398,3	471,7	73,4
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, <i>t.</i>	9 132,0	9 457,0	325,0
Tamaki mahsulotlari, <i>mln. dona</i>	1 192,0	943,4	-248,6

## Metallurgiya sanoati

( yanvar - iyul )



**FHI**  
**% da**



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati ulushi 15,9 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 54,2 ga ko'paygan bo'lsa, 2023 yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 16,2 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 113,3 % va ishlab chiqarish hajmi 8 592,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

( yanvar - iyul oylarida )

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyul oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 7,4 % ga kamaygan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 100,3 % ni va ishlab chiqarish hajmi 2 403,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



**FHI**  
**% da**






## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar - iyul oylarida)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 122,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,7 %, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 0,4 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 6738,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**FHI**  
% da



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

(yanvar - iyul oylarida)

**FHI**  
% da




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 90,4 % ga oshgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar - iyul oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 95,8 % ni va ishlab chiqarish hajmi 6 110,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

(yanvar - iyul oylarida)


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 89,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar - iyul oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 1,3 % ga kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2 892,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

(yanvar - iyul oylarida)



2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % ni, fizik hajm indeksi esa 117,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,8 % ni, fizik hajm indeksi 108,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 976,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish


(yanvar - iyul oylarida)

2022- yilning yanvar - iyul oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 90,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9 % ni, fizik hajm indeksi 42,3 % ga ko'paydi, ishlab chiqarish hajmi esa 2058,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**FHI**  
**% da**



## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

(yanvar - iyul oylarida)




2022 - yilning yanvar - iyul oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 267,0 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 59,4 % kamaygan bo'lib, ishlab chiqarish hajmi 208,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

(yanvar - iyul oylarida)

**FHI**  
% da



2022- yilning yanvar - iyul oylari yakunlariga ko'ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 139,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar - iyul oyilarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 28,1 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 108,2 % ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 14 939,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


(yanvar - iyul oylarida)

2022- yilning yanvar - iyul oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 103,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar - iyul oyida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,4 % ni, fizik hajm indeksi 109,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2 331,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




**FHI**  
% da



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

yanvar - iyul oylarida




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,0 trln. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,2 % ini) tashkil etdi.

2023- yilning yanvar - iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 5,3 % ga ko'payganligi kuzatildi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar - iyul oylarida, % da)



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyul	2023- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	441,9	2 274,2	1832,3

**Issiqlik energiyasi,**  
*ming gkal*

7 479,9

6 480,1

-999,8

**Elektroenergiya uzatish**  
**bo'yicha xizmatlar, mln so'm.**


471,0

535,5

64,5

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,**  
**chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

*yanvar - iyul oylarida*



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,5 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ini) tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,**

*(yanvar –iyul oylarida, % da)*




Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-iyul	2023- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	93,8	104,7	10,9
(Xavfli bo'lgan chiqindilar toksik kimyoviy, tonna)	183,1	173,4	-9,7

Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	154,4	193,0	38,6
---	-------	-------	------

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 11,0 % ga , oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 11,5 % ga , tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 25,0 % ga, o'sish kuzatildi.

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 20,6 trln.so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 31,8 % ni tashkil etdi.



Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 18,5 trln. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 35,6 % ni tashkil etdi.

**Toshkent shahrida faoliyat koʻrsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonolari**  
*(2023- yil 1 avgust holatiga koʻra)*

Bugungi kunda Toshkent shahrida 11,5 mingta sanoat korxonolari faoliyat koʻrsatmoqda.

2023- yilning yanvar-iyul oylarida Toshkent shahrida 888 ta yangi sanoat korxonolari tashkil etildi.

**Sanoat statistikasi boʻlimi**

*Tel.: (71) 203-88-16*